

XOTIN-QIZLARGA NISBATAN SODIR ETILADIGAN TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKLAR PROFILAKTIKASINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI



Maxtumova Yulduz Botir qizi

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklarning profilaktikasining institutsional asoslari tahlil qilingan. Maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasi, shu jumladan xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi subyektlar faoliyatiga atroflicha to'xtalangan. Muallif xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasida subyektlarning vazifa va vakolatlarini qayta ko'rib chiqish, subyektlari safini kengaytirish va ular qatoriga ommaviy axborot vositalari, sudlar, xotin-qizlarni rehabilitatsiya qilish markazlari, "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot institutlarini qo'shish taklif etilgan.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, tazyiq va zo'ravonlik, profilaktika, institutsional asoslar, jabrlanuvchi, shart-sharoitlar, oldini olish, subyekt.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН И ДЕВОЧЕК

Аннотация. В статье проанализированы институциональные основы профилактики притеснения и насилия в отношении женщин. Подробно рассматривается деятельность субъектов, осуществляющих профилактику правонарушений, в том числе профилактику притеснения и насилия в отношении женщин. Автор предлагает пересмотреть задачи и полномочия субъектов в профилактике притеснения и насилия в отношении женщин, расширить круг субъектов и включить в их число средства массовой информации, суды, центры реабилитации женщин, научно-исследовательский институт "Махалля и семья".

Ключевые слова: женщины, притеснение и насилие, профилактика, институциональные основы, жертва, условия, предотвращение, субъект.

INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF PREVENTION OF HARASSMENT AND VIOLENCE AGAINST WOMEN

Abstract. The institutional foundations for the prevention of pressure and violence against women have been analyzed. The article thoroughly examines the activities of entities responsible for crime prevention, including the prevention of pressure and violence against women. The author proposes to review the tasks and powers of entities involved in the prevention of pressure and violence against women, expand the range of these entities, and include media outlets, courts, women's rehabilitation centers, and the "Mahalla and Family" scientific research institutes among them.

Keywords: women, pressure and violence, prevention, institutional foundations, victim, conditions, prevention, entity.

Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik va tazyiqning oldini olishda institutsional asoslar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish

bilan shug'ullanuvchi turli ijtimoiy, huquqiy va davlat organlari tizimlari hamda tuzilmalarini o'z ichiga oladi. Bu haqda so'z yuritganda, avvalo, "institutsional" atamasiga ta'rif berishimiz lozim. "Institutsional" so'zining asosi "institut" so'zi

bo'lib, u muayyan sohadagi ijtimoiy munosabatlar va huquqiy me'yorlar majmuini anglatadi. [1; 215-b.] "Institutsional" so'zi lotin tilidagi "institutio" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu so'z "qurish", "tashkil etish" yoki "o'rnatish" degan ma'nolarni anglatadi. "Institutio" so'zi esa "o'rnatmoq", "qurmoq" yoki "boshqarishni boshlamq" degan ma'nolarni bildiradi.

"Institutsional" so'zi ingliz tilida XVII asrda paydo bo'lib, "tashkilotlar yoki tuzilmalar bilan bog'liq" yoxud "muassasalar bilan bog'liq" degan ma'noda ishlatila boshlangan. Bu atama, asosan, ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy tizimlarning tuzilmalari va ularning faoliyatini ifodalashda qo'llaniladi. Demak, "institutsional" so'zi, oddiy qilib aytganda, biror narsaning yoki hodisaning tashkilotlar, tuzilmalar yoki tizimlar bilan bog'liqligini ifodalash uchun ishlatiladi. Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olishning institutsional asoslariga maxsus qonunlar, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan normativ hujjatlar kiradi, ular nafaqat mamlakat doirasida, balki xalqaro doira ta'siriga ham ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi 1995-yilda Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilgan. Shundan beri O'zbekiston BMT qoshidagi Inson huquqlari qo'mitasiga ushbu Konvensiyada ko'tarilgan masalalarni amalga oshirish yuzasidan uch marta hisobot bergan. Inson huquqlari qo'mitasi har uchala hisobot ham O'zbekistonda ayollarning notengligi, patriarxal stereotipning mavjudligi hamda ko'plab ayollar oilada zo'ravonlik qurboni bo'lishini ta'kidlab, hukumatdan bularga qarshi choralar ko'rishini so'ragan[2; 52-b.].

BMT ma'lumotlarida, 15 yoshdan oshgan har uchinchi ayol hayoti davomida kamida bir marta bo'lsa ham jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikka uchrashi ta'kidlangan. [2; 54-b.].

Xalqaro huquq va tashkilotlar xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonliklarni kamaytirishga qaratilgan keng qamrovli tizimni yaratishga harakat qilmoqda. Biroq, bu tizimning samarali ishlashi mamlakatlarning siyosiy iroda va yuridik

tizimlari qo'llab-quvvatlanishiga bog'liq. Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olishning institutsional asoslariga quyidagilarni kiritish mumkin: davlat boshqaruv tizimi, sud tizimi, huquqni himoya qilish tizimi, ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, sog'liqni saqlash tizimi, ijtimoiy xizmatlar, jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari, ichki ishlar organlari hamda xavfsizlik tizimi va boshqa tuzilmalar.

Shu bilan birga, zo'ravonlikning oldini olish uchun bunday institutsional asoslar jamiyatda ijtimoiy islohotlarni, madaniy va psixologik o'zgarishlarni talab qiladi. Bu tizimlarning samarali ishlashi uchun ham davlat, ham jamoat, ham boshqa tegishli ijtimoiy institutlarning hamkorligi zarur. Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashishning institutsional asoslari ularga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi subyektlardan tashkil topadi. Masalan davlat boshqaruv tizimi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari subyektlaridan, huquqni himoya qilish tizimi ichki ishlar organlari, prokuratura organlari, davlat xavfsizlik xizmati organlari, adliya organlari, davlat bojxona xizmati organlari, davlat soliq xizmati organlardan iborat.

Demak, xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasining institutsional asoslarini uning profilaktikasi subyektlari tashkil etadi.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning profilaktikasi subyektlari – xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning oldini oluvchi, tazyiq va zo'ravonliklarni aniqlashni, ularga barham berishni, tazyiq va zo'ravonliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish, xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning profilaktikasi umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasi turlarini bevosita va bilvosita amalga oshiruvchi davlat va nodavlat, notijorat tashkilotlari va fuqarolardir.

I.Ismailov, Q.R.Abdurasulova va I.Yu.Fazilov "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun normalariga asoslangan holda quyidagi tasnifni ilgari suradilar:

1) jinoyatlar profilaktikasi subyektlarining faoliyati ustidan umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi subyektlar (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari);

2) jinoyatlar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi subyektlar (ichki ishlar organlari, prokuratura organlari, davlat xavfsizlik xizmati organlari, adliya organlari, davlat bojxona xizmati organlari, davlat soliq xizmati organlari, mehnat organlari, ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari, davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar, vasiylik va homiylik organlari).

3) jinoyatlar profilaktikasida ishtirok etuvchi subyektlar (fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari, madaniyat va sport muassasalari, turizm sohasidagi tashkilotlar, boshqa organ va muassasalar, ota-ona (ota-ona o'rnini bosuvchi shaxs) lar, fuqarolar);

4) jinoyatlar profilaktikasi subyektlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi subyektlar (Odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi, odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar, prokuratura organlari huzuridagi huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashlar).

S.Xo'jaqulov esa huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlarini quyidagicha tasniflashni tavsiya etadi:

1) huquqbuzarliklar profilaktikasida davlat

siyosatini shakllantiruvchi va amalga oshiruvchi subyektlar (Prezident, parlament, hukumat);

2) huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi subyektlar (ichki ishlar organlari, prokuratura organlari, davlat xavfsizlik xizmati organlari, adliya organlari, davlat bojxona xizmati organlari, davlat soliq xizmati organlari, mehnat organlari, ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari, davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari);

3) huquqbuzarliklar profilaktikasida ishtirok etuvchi subyektlar (Milliy gvardiya, sudlar, boshqa davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolar, ommaviy axborot vositalari);

4) huquqbuzarliklar profilaktikasini muvofiqlashtiruvchi subyektlar (Hududlarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish va huquqbuzarlikka qarshi kurashish respublika komissiyasi, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha, odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoralararo komissiyalar, prokuratura organlari huzuridagi huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashlar) [3; 34-b].

"Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun normalarida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi subyektlar tariqasida faqat organ va muassasalarning keltirilishi, fuqarolarni profilaktika subyekti sifatida e'tirof etishni istisno etadi. Bundan tashqari, qonunda huquqbuzarliklar profilaktikasini muvofiqlashtiruvchi subyektlar ham e'tirof etilgan, biroq vakolati va faoliyatining mazmunidan kelib chiqib, ushbu subyektlarni huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi subyektlar guruhiga ham, ishtirok etuvchi

subyektlar guruhiga ham qo'shib bo'lmaydi. Shu bois olimlar tomonidan ishlab chiqilgan tasnifni qo'llab quvvatlagan holda, huquqbuzarliklar profilaktikasini muvofiqlashtiruvchi subyektlarni alohida guruh ko'rinishida shakllantirish lozim.

«Bizningcha ushbu ta'rifni subyektlarning tasnifiga asoslanib ishlab chiqish hamda "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning[4] "Asosiy tushunchalar" mazmuni yoritilgan 3-moddasiga «huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari – profilaktik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlarini amalga oshiruvchi davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa davlat tashkilotlari, shuningdek xo'jalik boshqaruvi organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar» mazmunidagi yangi xatboshini kiritish lozim», deya taklif qilgan S.Xo'jaqulov. Bu taklifga bevosita qo'shilgan holda, ushbu profilaktika subyektlarini sud organlari hamda ommaviy axborot vositalari bilan to'ldirish lozim bo'ladi.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasini amalga oshirishda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikni oldini olishda institutsional hamkorlik zarur. Bu hamkorlik davlatlar o'rtasidagi samarali muloqot, xalqaro huquqni qo'llash, ma'lumot va resurslarni almashish kabilarni o'z ichiga oladi. Hamkorlikni kuchaytirish va bunday zo'ravonlikni kamaytirish uchun barcha darajadagi tashkilotlar birgalikda faoliyat ko'rsatishlari kerak. Bu jarayonning samarali bo'lishi uchun davlatning siyosiy irodasi, yuridik tizimlar va jamoat tashkilotlarining integratsiyalashgan harakatlari lozim. O'zbekiston Respublikasi hududida, eng avvalo, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikdan birinchi bo'lib xabar topadigan davlat tuzilmasi bu mahalla fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlaridir. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-aprelda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonuni [5] talablari asosida fuqarolar yig'ini xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfa-

atlarini himoya qilish, ularning jamiyat hayotida, oilada ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirish, yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'radi. Shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dasturlari, hududiy va boshqa dasturlarni, huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi yuzasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda ularning huquqlarini himoya qilish bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko'maklashish, yarashtirish komissiyasi va boshqa komissiyalarni tuzish, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa organlar va muassasalar bilan o'zaro hamkorlik qilish kabi qator vazifalarni amalga oshiradi [4]. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ichki ishlar organlari bilan hamkorlikdagi ishlarni birgalikda rejalashtirish va uning natijasini tahlil qilish, huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar haqida o'zaro axborot almashish, notinch oilalarni aniqlash, u yerdagi muhitni yaxshilash, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni jamoatchilik bilan muhokama qilish, huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish, ularni bartaraf etish hamda oldini olishga doir chora-tadbirlarni birgalikda amalga oshiradilar.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasida yana bir necha institutsional asoslar mavjud. O'zbekistonda milliy va etnik qadriyatlar va mentalitetidan kelib chiqqan holda, Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasi institutsional asoslari safi kengaygan bo'lib, 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi [6] hamda Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi ijrosini ta'minlash, shuningdek, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni manzilli qo'llab-

quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublika Prezidentining "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qaroriga asosan "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish respublika markazi negizida Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzurida Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi" (keyingi o'rinlarda – Respublika markazi) va uning hududiy bo'limlari tashkil etildi [7].

Mazkur markazlarga zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlari, o'z joniga suiqasd qilgan yoki o'z joniga qasd qilishga moyilligi bo'lgan xotin-qizlar joylashtiriladi. Ushbu markazlarning xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasining subyektivi sifatidagi vazifalariga quyidagilar kiradi: hududiy ichki ishlar hamda tibbiyot bo'linmalariga tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan, shuningdek, o'z joniga suiqasd qilgan yoki o'z joniga qasd qilishga moyil bo'lgan xotin-qizlar haqida zudlik bilan xabar berish, ichki ishlar organlariga tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan yoki o'z joniga suiqasd qilgan yoxud o'z joniga qasd qilishga moyil bo'lgan xotin-qizlar hamda ularning farzandlari markazlarga kelib tushish sabablari, shuningdek, ularga ko'rsatilgan yordamlar to'g'risidagi statistik-tahliliy ma'lumotlarni har oyning yakuni bilan kiritib borishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020-yil 18-fevraldagi farmoni va "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2020-yil 18-fevraldagi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzurida tashkil etildi. Bu borada 2020-yil 10-iyunda O'zbekiston Respub-

likasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qildi[8]. "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti mahalla va oila institutlarini mustahkamlashga ko'maklashuvchi, fuqarolar yig'inlarini aholining chinakam maslakdoshiga aylantirish va "Sog'lom oila – sog'lom jamiyat" g'oyasini hayotga tatbiq etish ishlarini ilmiy-uslubiy va axborot-tahliliy jihatdan ta'minlash faoliyatini amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan davlat ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi.

Bugungi kunda xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasi subyektlari oldida qanday vazifalar turibdi? Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'zining "Sog'lom sayyorada tinchlik, qadr-qimmat va tenglik" deb nomlangan web saytida "Pekin harakatlar platformasi +30: hozirgi global iqtisodiyotda xotin-qizlarning iqtisodiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish muammolari hamda imkoniyatlari" deb nomlangan sahifa bilan chiqdi va quyidagilarni butun dunyo hamjamiyati uchun ayollar gender tengligi nima sababdan dolzarb muammo bo'lib qolayotganligini yoritdi.

"Ko'proq ayollar mojaro va inqiroz sharoitida yashaydi: 2023-yilda 170 dan ortiq qurolli to'qnashuvlar sodir bo'ldi; 612 million ayol va qizlar ulardan 50 kilometr uzoqlikda yashagan, bu 1990-yillardagidan ikki baravar ko'p.

Juda ko'p ayollar hali ham kambag'al: Dunyodagi ayollar va qizlarning deyarli 10 foizi o'ta qashshoqlikda qolmoqda, undan chiqishning bir necha yo'li bor. Eng yomon iqlim ssenariysida 2050-yilga kelib qo'shimcha 158,3 million ayol va qiz qashshoqlikka olib kelishi mumkin. Onalar o'limini kamaytirish borasidagi istiqbolli yaxshilanishlar asosan eng qashshoq va eng zaif mamlakatlar va jamoalarda to'xtab qolgan.

113 mamlakatda hech qachon ayol davlat rahbari bo'lmagan: Ayollarning siyosiy ishtiroki bo'yicha rivojlanish kuzatilmoqda, ayollarning ulushi jahon miqyosida ikki baravardan ko'proq, ya'ni bugungi kunda 11 foizdan 27 foizga oshgan. Shunga qaramay, o'zgarish darajasi gender tengligini uzoq orzuga aylantiradi.

Ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlikning global inqirozi bir necha alomatlar bilan davom

etmoqda: Taxminan 736 million ayol o'z hayotining bir davrida yaqin sherigi tomonidan tomonidan jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikka yoki sherik bo'lmagan shaxs tomonidan jinsiy zo'ravonlikka duchor bo'lgan. Inqiroz davrida stavkalar ko'tariladi va raqamli texnologiyalar orqali yangi shakllar paydo bo'ladi. Bundan tashqari, ayollar va qizlar nogironlik, irq, yosh, daromad yoki jinsiy oriyentatsiya kabi istisnolarning boshqa shakllariga duch kelganda ham, gender kamsitish xavfiga duch kelishadi" [9].

Albatta, bu global muammolar, lekin bu kabi holatlar va kamchiliklar bizning yurtimizni ham chetlab o'tmaydi, moliyaviy mustaqillikka ega bo'lmagan xotin-qizlar bizda ham talaygina va jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikka duchor bo'layotgan ayollar ham kam emas.

Shu o'rinda xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasi subyektlari tomonidan bajariladigan vazifalardan kelib chiqib, ularni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq.

Birinchi o'rinda xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning oldini oluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni aholining fikri asosida ishlab chiquvchi va qabul qiluvchi subyektlar –O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi.

Ikkinchi o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning oldini oluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning hayotga tatbiq qilinishida ishtirok etuvchi organlar, ya'ni qonun va qonunosti hujjatlari amaliyotini ta'minlovchi subyektlar: ichki ishlar organlari, prokuratura organlari, davlat xavfsizlik xizmati organlari, adliya organlari, davlat soliq xizmati organlari, mehnat organlari, ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari, davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqalar.

Uchinchi o'rinda xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning sodir etilishiga vaziyat yaratuvchi muhit, tazyiq va zo'ravonliklarning sodir etilishi sabab va shart-sharoitlari hamda ularning sodir etilganligi haqida xabardor qiluvchi subyektlar, ya'ni fuqarolar, sudlar, ommaviy axborot vositalari. Yuqorida keltirilganlar orasida faqat sudlar yuqori davlat organi hisoblanadi-da, xabar beruvchi subyekt hisoblanadi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 130-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyat qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritadi[10].

Shunday bo'lsa-da, Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar sodir etilgan huquqbuzarlikning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha kerakli tashkilotlarga taqdimnoma bilan chiqadi va sudning taqdimnomasiga asosan tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan shaxsga nisbatan ma'lum muddat davomida ma'muriy va profilaktik hisob ishlari yuritiladi.

Lekin "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunda huquqbuzarliklarning profilaktikasi subyekti sifatida aynan qaysi sud faoliyati profilaktik chora-tadbirlar uchun muhimligi ko'rsatilmagan, zero fuqarolik sudlari tomonidan ham iqtisodiy zo'ravonlik qurboni bo'lgan va ajrim yoqasidagi, aliment masalalari bo'yicha ko'plab masalalar ko'riladi ammo bu haqida taqdimnoma tegishliligi bo'yicha yo'naltirilmagan kelmoqda Bu ham xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning oldini olish subyekti sifatida qonunda belgilanishi lozim. Shu sababli sudlarni, konstitutsiyaviy huquqlaridan kelib chiqib, huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlariga qo'shish lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasida subyektlarning vazifa va vakolatlarini to'liq ishlab chiqish, subyektlari safini kengaytirish va ular qatoriga ommaviy axborot vositalari va sudlarni hamda

yurtimizda yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga asosan xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasi subyekti sifatida xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish markazlari, "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot institutlarini qo'shish lozim. Ularni xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning sodir etilishiga vaziyat yaratuvchi muhit, tazyiq va zo'ravonliklarning sodir etilishi sabab va shart-sharoitlaridan hamda ularning sodir etilganligi haqida xabardor qiluvchi subyektlar safiga qo'shish zamon talabi nuqtayi nazaridan kelib chiqmoqda. Zero, bu "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning 9-moddasida ko'rsatilgan[4].

Ayni paytda mavjud subyektlar xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarni cheklashga doir qonunlar ishlab chiqishi va uning amaliyotini nazorat qilishi mumkin, lekin tazyiq va zo'ravonliklar sodir etilishidan oldin uni oldini olish va sodir etilgan tazyiq va zo'ravonliklardan aholini xabardor qilish hamda jazo muqarrarligini, ko'rilgan jazo chorasini adolatli ekanligini aholiga to'g'ri yetkazish, iqtisodiy zo'ravonlikka uchrash xavfi ostida bo'lgan ayollar to'g'risida ma'lumot olish va shu bilan tazyiq va zo'ravonliklarning barvaqt oldini olish samaradorligini oshirish hamda ularga moddiy-ma'naviy yordam ko'rsatish uchun yetarli emas. Shuningdek, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha institutsional asoslar hali mukammal emas va ba'zi kamchiliklarga ega.

Qonunchilikning yetarlicha takomillashmaganligi, qolaversa xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashishga qaratilgan qonunlar mavjud bo'lsa-da, ularning amaldagi samaradorligi va to'liq amalga oshirilishi kamchiliklar bor. Qonunlar ba'zan yetarlicha aniq yoki mukammal emas, shuningdek, ularning joriy etilishi va ijrosi borasida jiddiy muammolar mavjud. Institutsional hamkorlikning yetarlicha rivojlanmagan, ya'ni zo'ravonlikka qarshi kurashishda davlat organlari, fuqarolik jamiyati, notijorat tashkilotlar va boshqa subyektlar o'rtasidagi hamkorlik yetarlicha rivojlanmagan

bo'lishi mumkin. Ular o'rtasida kommunikatsiya va koordinatsiyaning yo'qligi yoki zaifligi samarali ishlashga xalaqit beradi.

Ba'zan jamiyatda zo'ravonlikka qarshi kurashish siyosati va institutsional asoslar madaniy va ijtimoiy to'siqlarga duch keladi. Masalan, patriarxal qarashlar, oilaviy an'analar yoki diniy omillar ijtimoiy muhitda zo'ravonlikni tabiiy hol sifatida ko'rishga olib kelishi mumkin, bu esa institutsional mexanizmlarni samarali amalga oshirishga to'sqinlik qiladi.

Yoshlar va oila ta'limi tizimidagi muammolar, ya'ni xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olish bo'yicha ta'lim va tarbiya tizimi yetarli darajada rivojlanmagan bo'lishi mumkin. Maktabda va oliy ta'lim muassasalarida bunday muammolarga bag'ishlangan maxsus dasturlar yoki o'quv materiallari mavjud emas. O'quvchilarga zo'ravonlikning oldini olish, gender tengligi, hurmat va o'zaro muloqot madaniyatini o'rgatish zarurati mavjud.

Zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha jazo tizimi yetarlicha samarali emasligi ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Jinoyat sodir etgan shaxslar ko'pincha javobgarlikka tortilmaydi yoki jazo o'zgartiriladi. Sud tizimining ishi xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilishda kamchiliklarga olib kelishi mumkin.

Ma'lumot va monitoring tizimining zaifligi, ya'ni zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida samarali monitoring tizimi va statistik ma'lumotlar yig'ishda kamchiliklar mavjud. Xotin-qizlarga nisbatan huquqbuzarliklar haqida aniq va to'liq ma'lumot to'plash va tahlil qilishda muammolar bor. Bu, o'z navbatida, fuqarolik jamoatchiligi institutsional asoslarining bir-biri bilan, ba'zan davlat tashkilotlari bilan ma'lumot almashinuvi kamchiliklaridan kelib chiqadi. Bu esa siyosatni shakllantirish va resurslarni samarali taqsimlashda to'siq bo'ladi.

Respublikamizda yuqorida ko'rsatib o'tilgan hamda "Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori [11], "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyat

yatlarning kafolatlari to'g'risida"gi [12], "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi [13] qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinayotgan bo'lsa-da, subyektlar faoliyatini tartibga soluvchi yagona norma mavjud emas.

Subyektlarni vazifasiga asosan yo'naltirish va profilaktikada amalga oshiradigan vazifalariga ko'ra taqsimlashda ularni quyidagi uch toifaga bo'lish kerak:

1. Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning oldini oluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni aholining fikriga ko'ra ishlab chiquvchi va qabul qiluvchi subyektlar.

2. Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning oldini oluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning amalga tatbiq etilishida ishtirok etuvchi organlar, ya'ni normativ-huquqiy hujjatlar amaliyotini ta'minlovchi subyektlar.

3. Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning sodir etilishiga vaziyat yaratuvchi muhit, tazyiq va zo'ravonliklarning sodir etilishi sabablari va shart-

sharoitlari hamda ularning sodir etilganligi haqida xabardor qiluvchi subyektlar.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarning oldini olish subyektlarining bunday taqsimoti bilan xotin-qizlarning jabrlanish ehtimolini yanada kamaytirishga erishish mumkin.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish uchun tashkil etilgan institutsional asoslar xalqaro va milliy miqyosda turli darajadagi muhim tashkilotlar, huquqiy tizimlar va ijtimoiy strukturalarni o'z ichiga oladi. Bu tizimlar o'zaro hamkorlikda ishlashga qaratilgan bo'lib, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish va zo'ravonlikka qarshi samarali choralar ko'rishga yo'naltirilgan. Qabul qilingan normativ hujjatlar profilaktika ishlarini tashkil etish faoliyati yo'nalishtirishining aniq chegaralarini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi. Bu esa, o'z navbatida, bir idora vakillari uchun emas, balki xotin-qizlarga nisbatan huquqbuzarliklarning oldini olishda barcha davlat idoralari, jamoatchilik tashkilotlari hamda mas'ul shaxslar uchun huquqiy manba hisoblanadi.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: "Akademnashr", 2020.
2. Axmedov O.T. Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar bilan huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish faoliyati: Darslik. – 52–54-b.
3. Xo'jaqulov C.B. Huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasini takomillashtirish (ichki ishlar organlari faoliyati misolida). – T., 2020. – 34-b.
4. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun. <https://lex.uz/docs/-2387357?ONDATE=26.01.2022>.
5. "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonun <https://lex.uz/mact/2156899>.
6. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. <https://www.lex.uz/acts/3107036>.
7. O'zbekiston Respublika Prezidentining "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/5426644>
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi qarori. <https://lex.uz/docs/-4850317?ONDATE=11.06.2020%2000#-4854811>.
9. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Sog'lom sayyorada tinchlik, qadr-qimmat va tenglik" deb nomlangan web sayti <https://www.unwomen.org/en/articles/explainer/the-beijing-declaration-and-platform-for-action-at-30-and-why-that-matters-for-gender-equality>
10. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. – T., 2023. – 65–66-b.
11. "Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Qarori. <https://yuz.uz/uz/news/>
12. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarning kafolatlari to'g'risida"gi qonuni. <https://lex.uz/docs/-4494849>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarori. <https://lex.uz/docs/-3797625>